

## ZAMONAVIY SHE'R BILAN NOVERBAL "TEKST"LAR ORASIDAGI INTERTEKSTUALLIK HAQIDA

Sharipova Tursunoy Bozor qizi,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi o'zbek tili va adabiyoti folklori instituti tayanch doktoranti*  
[Sharipovaturunoy316@gmail.com](mailto:Sharipovaturunoy316@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18486730>

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy she'riyat va noverbal matnlar orasidagi intertekstual munosabatlar yoritilgan. Shuningdek, chet el tadqiqotlari o'zbek she'riyati misolida tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar.** Zamonaviy she'r, noverbal matn, intertekstuallik, san'at turlari.

**Аннотация.** В статье рассматриваются интертекстуальные связи между современной поэзией и невербальными текстами. Также анализируются зарубежные исследования на примере узбекской поэзии.

**Ключевые слова:** современная поэзия, невербальный текст, интертекстуальность, виды искусства.

**Abstract.** This article examines the intertextual connections between contemporary poetry and nonverbal texts. It also analyzes international research using Uzbek poetry as an example.

**Keywords:** contemporary poetry, nonverbal text, intertextuality, art forms.

**Kirish.** Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan ilm-fan o'ziga yangidan yangi tushuncha va nazariyalarni qamrab olishni talab qilmoqda. Fan va texnikaning bu kabi rivoji, albatta, adabiyotshunoslikda ham yangi qirralarni ochilishiga sabab bo'lmoqda. Xususan biz matnlararo aloqa deb biladigan intertekstuallik atamasi ham aynan shunday nazariyalardan biridir. Bu nazariyaning mohiyati biz uchun yangilik bo'lmasa-da, ammo istiloh sifatida kiritilishi, uning mexanizmlari ishlab chiqilishi va umumiy qamrovining kengayib borayotgani alohida bir muhokamali tadqiqot olib borishni talab qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Hozirgi vaqtdagi matn tushunchasi ko'plab bahs – munozaralar va hayotiy hodisalarni bosib o'tgan. Корниенко Сергей Анатольевич va Гереяханова Камилла Фезамеддиновна ning "Виды и формы интертекста как взаимодействия текстов" maqolasida "intertekst" atamasini o'rganishda Vasiliy Moskvinning ishini ko'rib chiqadi va uning intertekstuallikning har xil turlarini keltirganini aytadi. Qizig'i shundaki, Moskvina tomonidan kiritilgan bo'linish intertekstuallik niyat tamoyiliga ko'ra uch turga bo'linadi: muallif tomonidan rejalashtirilgan ritorik intertekstuallik, rejalashtirilmagan spontan intertekstuallik va ataylab shifrlangan kriptoforik intertekstuallik turlarini o'rganganligini aytib o'tadi.[5]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada intertekstuallik hodisasining noverbal matnlar bilan munosabati haqida so'z yuritiladi. Noverbal matnlarning matniy xususiyatlari ochib beriladi. O'zbek she'rlaridan namunaviy misollar orqali matnlar aloqasi yoritiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Semiotiklar rasm, chizmachilik, haykaltaroshlik, kompozitsiyasi, arxitektura turi bino, film (ayniqsa, minimal qisqartmalar va uzluksiz kameradan foydalangan holda) musiqiy kompozitsiyalarni ham matn sifatida qabul

qiladilar, chunki ularning barchasi uzluksiz birlik sifatida ishlaydi. Intertekstuallik tushunchasi muallifning boshqa matnlar, noverbal tizimlar resurslaridan foydalangan holda matn qurish strategiyasini o'z ichiga oladi. Matnning keng talqiniga asoslanib, unda har qanday belgining matn sifatida shakllanishi matn sifatida ko'rib chiqiladi, intertekstuallik o'zining verbal va noverbal matnlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirini tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Bu esa shubhasiz, intertekstuallik tushunchasining chegaralarini kengaytiradi. Hozirgi vaqtda og'zaki va og'zaki bo'lmagan matnlarning intertekstual aloqasi turli atamalar bilan yoritilgan: Kreollashtirilgan matnlar, oraliq yoki intersemiotik; vizuallashtirilgan intertekstuallik va interikona. [6]

Intertekstuallik faqat verbal kategoriya sifatida qaralmaydi, u adabiy matnlarni qurishdagi turli nutqlar (interdiskursivlik) va noverbal tizimlardan (intersemiotik) foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Intertekstuallikni tushunishning kengligi intertekstuallikning rasmiy belgilari ro'yhatini kengayishida ham o'z aksini topadi. Shunday qilib, adabiyotshunoslar fikricha matn yaratish quyidagilar yordamida amalga oshiriladi:

1) ma'no hosil qilishda ishtirok etadigan va subektiv ustunlik tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan og'zaki va og'zaki bo'lmagan matnlar;

2) nutqlar (adabiy, ilmiy va boshqalar) shuningdek, matn maydonining matn tashkil etuvchi qismi sifatida tushuniladigan subektiv ustunlik bilan tavsiflanadigan ijtimoiy madaniy nutqlar madaniyatlararo birga yaratilgan semiotik tajribalar.

Intertekstuallikning shakllanishida biz har qanday matn, asosan, intertekst ekanligi haqida tezisni keltirib chiqaramiz. Shuning uchun intertekstuallikni semiotik qonun deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga, matn yaratish nuqtai nazaridan, ob'ektini tanlash muallifning qadriyatlar tizimini aks ettiradi, masalan, arxitektura asarining tavsifi aksiologik miqyosni belgilaydi, unga nisbatan personajlarning mohiyati va muallifning tasvirlangan ob'ektlarga munosabati aniqlanadi. [1]

O'zbek adabiyoti she'rlari va noverbal matnlar o'rtasidagi intertekstlar ham uchraydi. Masalan, Abdulla Oripov ijodidagi "Munojotni tinglab" she'ri o'zbek xalqining o'lmas kuyi "Munojot" ga atab yozilgandir.

Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,

Asrlar g'amini so'ylar munojot.

Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga

Qanday chiday olgan ekan odamzod!

Bu she'r "Munojot" kuyining asrlar davomida mavjudligi, Navoiy va Xayyom davrlarida ham g'amgin navo taratib turganini keltiradi. Abdulla Oripovning navbatdagi she'ri esa "Qoraqum" filimiga bag'ishlanib yozilgan bo'lib, bu kinofilm bilan matniy aloqadir. She'rning nomi "Qasoskor haqida ballada" bo'lib, film voqealariga asoslanib yozilgandir.

Sahro otashida qovrilar gullar,

Charx urar boshida mahzun bulbullar,  
Gulshanga qahringiz sochmang, ey, cho'llar,  
Sizning o'zingizni yondirar qasos.  
Qon yig'lar yarali ohu bolasi,  
Falakka chirmashar g'amgin volasi.  
Haqqa yetganida uning nolasi,  
Sayyodning qoniga qondirar qasos.

Musiqqa, filmlar bilan bir qatorda A. Oripov ijodida san'at asarlari bo'lmish suratlarga atalgan she'rlar ham alohida o'rin egallaydi. Uning "Surat" nomli she'rida:

Behzod chizib ketgan ajib chamanda  
Hanuz aziz zotlar yurgan kabidir.  
Siz "Mona Liza" ga boqing, chamamda,  
Joni o'zi bilan turgan kabidir.

Bu she'rda san'atning rassomchilik yo'nalishi bilan aloqa sezilib, Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinche kabi rassomlar tilga olinadi va aynan "Mona Liza" surati tanlab olinadi. Madaniy kodlar parchalari, formulalar, ritmik tuzilmalar, ijtimoiy idiomalarning parchalari. - bularning barchasi matnga singib ketadi va unga aralashadi, chunki matn ichida va uning atrofida doimo til mavjud. [1] Xuddi shundayin, san'at asarlari ham, albatta, matn tarkibiga singadi va umumlashadi. Lekin ishoralar, allyuziyalar va turli eslatmalar yordamida matniy aloqaning izlari aniqlanadi va kitobxon uchun qiziqarli manbaga aylanadi.

O'zbek xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodida "O'zbekfilm" deb nomlangan bir she'r borki, unda o'zbekfilm ijodkorlarining yangilik yaratishiga bo'lgan xayrixohlik, tanqid, e'tirozlar seziladi.

Arxivlarda qoldi *Tohir – u Zuhro*,  
Bo'lak nimang ham bor desam: ko'rlaring.  
Soqol bo'yash bilan bandmi endi yo  
O'rtoq "O'zbekfilm", rejissyorlaring?

Iste'dodli shoira Nodira Afoqovanning ham she'riyatida san'at bilan bog'liq matniy aloqalar uchraydi. Masalan, uning "Sirsurat" nomli she'rining tahliliga diqqatimizni qaratsak:

*Mona Liza*, aytishlaricha,  
Boshqa surat bormish ortingda sening.  
Erkak – ayolliging bilib bo'lmasmish.  
Hmm... Qachon ko'ramiz asl chehrani?  
Hozircha vaqtga asirdir siring.  
Balki yillar kerak,  
Qoni tozargan avlodlaringning g'ayrati, umri...  
O'shangacha o'lmay tursam qaniydi.

She'r o'sha mashhur surat Mona Liza suratiga atab yozilgan. Bu suratning siri shoirni ham hayratga solgan. Hatto hali bu surat ayol yo erkak surati ekanligi ham noma'lumligi, surat ortida yana bir surat borligi va bu surat siri qachon aniq bo'lishi vaqtga bog'liqligi haqida fikr yuritilgan. Shuncha vaqtdan buyon bu suratning siri mavhumligicha qolmoqda. Bu rassomning chinakam iste'dod sohibi ekanligini anglatadi. Balki yillar o'tib bu suratning siri olam ahliga ayon bo'lar, shoira shu damlarni ko'rishni istaydi. Shoira y'a'na bir she'ri "Dugoh" da shunday satrlarni keltiradi:

Uni tashlab ketdim.

Tun o'rtasida

Bir osmon yulduzlar yonardi par-par.

Bo'ronli dengiz u- bo'lmas yaqinlab.

Uni olislardan tinglamoq kerak.

Ismi sevgandim o'zidan avval.

U-Dugoh.

Dugoh – bu Shashmaqom tarkibidagi kuy hisoblanadi. Bu she'rda shoira olisdan kelayotgan kuyga maxliyo bo'lgan, lekin uning ismini oldinroq eshitib yaxshi ko'rgan.

Men yolg'iz yo'lovchi edim.

Ismi uchib keldi birjuft qush misol.

U – chaqmoq mulkiga mening uzlatim.

Uzo – oqdan tinglarman.

Sel bo'larman, sel...

She'ring navbatdagi qismida "Ismi uchib keldi bir juft qush misol." misralari keltirilgan. Bizga ma'lumki, "Dugoh" ismidan ham ma'lum bo'lgan bu kuy ikki tayanch pardali ohang ifodasi bo'lib, Husayniy va Hijoz kabi ikki mukammal tovushqatorlar asosida kuylanadi. Ushbu misra ham aynan shu ikki tovushlar nazarda tutilgan holda yozilgan. Bu kuyni tinglagan tinglovchi, albatta, yuragida allaqanday iztirob va tushunib bo'lmas hislarning ta'siriga tushishi aniq. Intertekstuallik an'anaviy ravishda retrospektiv kategoriya sifatida qaraladi:

"Intertekstuallik berilgan matn doirasidagi o'zaro ta'sirni anglatadi. Uni idrok etish sub'ekt intertekstuallik hodisasini ushbu matn tarixni qanday izohlashi va uni o'zida tartibga solish ko'rsatkichi sifatida tushunadi.[5]

Muallifning intertekstualligi tufayli butun makon, she'riy va madaniy xotira yangi yaratilgan matn tarkibiga his-tuyg'ularni shakllantiruvchi element sifatida kiritiladi va shu bilan adabiy an'ana o'tmishdan hozirgi kunga emas, balki hozirgi kundan o'tmishga boradi va har qanday yangi badiiy ijod tomonidan tashkil etiladi.[3] Darhaqiqat, yuqorida tahlil qilingan she'rlarning hammasida o'tmishda yaratilgan san'at asarlari keltirilgan bo'lib, voqea – hodisani kitobxon xuddi hozirgi zamondan o'tmishni xotirlab o'qiydi va tahlil qiladi.

**Xulosa.** Umuman olganda intertekstuallik hodisasi juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, nafaqat badiiy adabiyotda nasr va nazmda balki san’atda ham o‘zining sezilarli iziga ega. Kinofilmlar, musiqa, haykaltaroshlik, reklama sohalarida ham adabiy intertekst hodisasini uchratishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. БЕЗРУКОВ А.Н. ПОЭТИКА ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ. Бирск 2005. 32 б.
2. Воскресенская Елена Геннадьевна. Интертекстуальные включения в произведениях И. Во. Барнаул-2004 – 16- с.
3. Фатеева Н.А. ИНТЕРТЕКСТ В МИРЕ ТЕКСТОВ. М.: КомКнига, 2007. — 21- с.
4. Корниенко С. А. Герейханова Камилла Фезамеддиновна.// Виды и формы интертекста как взаимодействия текстов. Culture and Civilization. 2017, Vol. 7, Is. 4A. 192-с <http://publishing-vak.ru/file/archive-culture-2017-4/17-kornienko-gereikhanova.pdf>
5. Москвин В.П. (Волгоград).// Интертекстуальность: категориальный аппарат и типология\*. © Колокольцева Т.Н., 2013 – 56- с. 8 bet <file:///C:/Users/User/Downloads/intertekstualnost-kategorialnyy-apparat-i-tipologiya.pdf>
6. О.В Богданова, Л. К. Оляндер. ИНТЕРТЕКСТ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЕ РОМАНА М.ГОРЬКОГО <ЖИЗНЬ КЛИМА САМГИНА> : К ПОСТАНОВКЕ ПРОБЛЕМЫ. 2020.

Ajlnivaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934